

Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o'tkazilgan test sinovi natijalarining klassik test nazariyasi asosida statistik tahlili

I. MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida"gi 646-sodan qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining buyrug'i asosida 2023-yilning 21-may kuni Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun talabgorlar o'rtaida o'tkazilgan test sinovi natijalarining statistik tahlili amalga oshirildi.

Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o'tkazilgan test sinovlarida har bir variant **45 ta** (36-45-ochiq test topshiriqlarining A va B qismlarga ajratilishi hisobiga **55 ta**) test topshiriqlaridan iborat bo'lib, ajratilgan vaqt javoblar varaqasini bo'yash bilan birgalikda **150 daqiqani** tashkil etdi. Test sinovida jami **1379 nafar** talabgorlar qatnashdilar.

ID raqamlari- 2424114 va 2430904 bo'lgan sinaluvchilar (**2 nafar**) barcha test topshiriqlariga to'g'ri javob bergenligi uchun ushbu sinaluvchilarining (**jami 2 nafar**) natijalari tahlildan chiqarildi. Bundan tashqari variantdagagi (36-45-ochiq test topshiriqlarining A va B qismlarga ajratilishi hisobiga **55 ta** bo'lgan test topshiriqlarining 2 tasiga (**ID raqami – O43A va O43B bo'lgan ochiq turdagি test topshirig'i**) barcha sinaluvchilar to'g'ri javob bergenliklari uchun ushbu test topshiriqlarining natijasi ham tahlildan chiqarildi. Ushbu test topshiriqlari variantdan chiqarilgandan so'ng, ID raqami- 2423211 bo'lgan (**1 nafar**) sinaluvchining natijasi nolga teng bo'lib qoldi, ya'ni ushbu ID raqami- 2423211 bo'lgan (**1 nafar**) sinaluvchi barcha test topshiriqlariga noto'g'ri javob bergen bo'lib qoldi va uning natijasi ham tahlildan chiqarildi.

Ushbu chiqarishlar hisobiga Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o'tkazilgan test sinovi **53 ta** test topshrig'idan iborat bo'ldi va sinaluvchilarining barcha test topshiriqlariga to'g'ri va noto'g'ri javob bergenliklari (**jami 3 nafar**) hisobiga **1376 nafar** sinaluvchilarining natijalari tahlil qilindi.

Testologiya va pedagogik o'lchovlarning nazariy asoslariga ko'ra har bir test bo'yicha tuzilgan test topshiriqlari mazmuni ekspert tekshiruvidan o'tkazilgandan keyingi bosqichda test sinovlarini o'tkaziladi va uning natijalari asosida testlarning xususiyatlari sifatini tashhislash uchun ularning statistik xarakteristikalarini aniqlanadi. Testlarini statistikada tanlanma to'plam deb hisoblanadi. U real testlar to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Real testlarni statistikada bosh to'plam deb ataladi. Bosh to'plam xususiyatlirini tahlili bilan testlari tahlilini solishtirish bilim darajalarining o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Statistik xarakteristikalar yordamida test topshiriqlariga qo'yilgan asosiy talablarning ko'rsatkichlari aniqlanadi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talablar – topshiriqning qiyinligi, test ballarining dispersiyasi (o'zgaruvchanligi, farqlanishi), topshiriqning boshqa topshiriqlar bilan, shuningdek, umumiyl ballar yig'indisi bilan korrelyatsiyasi (bog'liqligi)dan iborat. Topshiriqning qiyinlik darajasini aniqlash usullaridan biri topshiriqni empirik sinovdan o'tkazib, to'g'ri javoblar salmog'ini aniqlashdan iborat. Test ballari (yoki to'g'ri javoblar)ning dispersiyasi test topshiruvchilarining tayyorgarlik darajasini aniqlashga, bilim darajalari bo'yicha ajratishga imkon beradi.


Shuningdek, test variantlari va test topshiriqlarining asosiy statistik xarakteristikalarini qatoriga o'rta qiymat, histogrammani qurish, moda va mediana kabi ko'rsatkichlarni hisoblash hamda test ballarining umumiyl dispersiyasi (standart og'ish) ham kiradi. Test ballari (yoki to'g'ri javoblar)ning o'rta arifmetik qiymati fanlar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa muhim belgilar kesimida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich test ballari o'rta sidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo'lgan yo'nalishni, qonuniyatni olib beradi. Test sinovlari natijalari asosida aniqlangan test ballari taqsimoti histogrammasi quriladi va uning normal taqsimotga yaqinligi baholanadi. Histogrammaning normal

taqsimotga yaqinligi testning sifatini, test sinovlarining ob'ektiv o'tkazilganligini bildiradi. Test ballarining eng ko'p takrorlanadigan qiymati statistikada moda, o'sish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o'rtasida joylashgan qiymati esa mediana deyiladi. O'rta arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o'zaro teng bo'lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo'ladi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar biri-biridan qanchalik ko'p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik uzoq bo'ladi.

II. NATIJALARING TAVSIF STATISTIKALARI

1- jadval

| | |
|---------------------------|---------|
| Test topshiruvchilar soni | 1376 |
| O'rta qiymat | 55.103 |
| Mediana | 56.150 |
| Moda | 38.6 |
| Standart tafovut | 17.4052 |
| Dispersiya | 302.941 |
| Asimmetriya | -0.195 |
| Ekstsess | -0.589 |
| Diapazon | 86.3 |
| Minimum | 7.2 |
| Maksimum | 93.5 |



Test natijalarining statistik tahliliga ko'ra, Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o'tkazilgan test sinovi natijalari bo'yicha test variantining **ishonchlilik koeffitsiyenti** (Kronbax alfa koeffitsiyenti) **0,89** ga teng bo'ldi. Kronbax alfa koeffitsiyentining bu qiymati ushbu test variantining ichki muvofiqligi "**yaxshi**" ekanligini ko'rsatadi.

Test topshiriqlarining ichki muvofiqligi har bitta test topshirig'iga berilgan to'g'ri javoblarining umumiyligi ball bilan korrelyatsiyasiga, talabgorlar olgan umumiyligi ballarning standart og'ishiga, har bitta test topshirig'iga berilgan javoblarining standart og'ishlari yig'indisiga hamda test topshiriqlari va test topshiruvchilar soniga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari test topshiriqlarining ichki muvofiqligi nafaqat test topshiriqlarining sifatiga, balki talabgorlarning tayyorgarlik darajasining past yoki yuqoriligidagi ham bog'liqdir.

2- jadval

| Kronbax alfa | Ichki muvofiqlik |
|-------------------------|------------------|
| $0,9 \leq \alpha$ | a'lo |
| $0,8 \leq \alpha < 0,9$ | yaxshi |
| $0,7 \leq \alpha < 0,8$ | qoniqarli |
| $0,6 \leq \alpha < 0,7$ | munozarali |
| $0,5 \leq \alpha < 0,6$ | yomon |
| $\alpha < 0,5$ | qoniqarsiz |

III. QIYINLIK DARAJALARI

Quyida test topshiriqlari natijalari asosida, test topshiriqlarining - ID raqami, ishtirokchilar soni - N hamda bitta test topshirig'iga barcha talabgorlar to'g'ri javob bergenida hosil bo'ladigan ballarning

yig‘indisi - X_{max} , talabgorlarning har bir test topshirig‘idan olgan ballari yig‘indisi - X_i , $\frac{X_i}{X_{max}} \cdot 100\%$ to‘g‘ri javob berganlar foizi – Ans (foizda) va test natijalari bo‘yicha aniqlangan qiyinlik darajalari V (1-, 2- va 3- qiyinlik darajalari) jadval shaklida keltirildi.

3- jadval

Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o‘tkazilgan test sinovi natijalari bo‘yicha test topshiriqlarining aniqlangan qiyinlik darajalari

| Nº | ID | N | X _{max} | X _i | Ans (foizda) | V |
|-----------|-------------|-------------|------------------|----------------|-----------------|----------|
| 1 | T5 | 1376 | 1788.8 | 1684.8 | 94.19 | 1 |
| 2 | T18 | 1376 | 1788.8 | 1615.9 | 90.33 | 1 |
| 3 | O40A | 1376 | 1513.6 | 1346.4 | 88.95 | 1 |
| 4 | T12 | 1376 | 3027.2 | 2686.2 | 88.74 | 1 |
| 5 | T23 | 1376 | 3027.2 | 2442 | 80.67 | 1 |
| 6 | T30 | 1376 | 3027.2 | 2437.6 | 80.52 | 1 |
| 7 | O41A | 1376 | 1513.6 | 1184.7 | 78.27 | 1 |
| 8 | T32 | 1376 | 3027.2 | 2354 | 77.76 | 1 |
| 9 | T11 | 1376 | 1788.8 | 1387.1 | 77.54 | 1 |
| 10 | T7 | 1376 | 1788.8 | 1370.2 | 76.60 | 1 |
| 11 | T34 | 1376 | 3027.2 | 2285.8 | 75.51 | 1 |
| 12 | T29 | 1376 | 3027.2 | 2283.6 | 75.44 | 1 |
| 13 | T35 | 1376 | 3027.2 | 2277 | 75.22 | 1 |
| 14 | T24 | 1376 | 4403.2 | 3244.8 | 73.69 | 2 |
| 15 | T6 | 1376 | 3027.2 | 2182.4 | 72.09 | 2 |
| 16 | T19 | 1376 | 3027.2 | 2134 | 70.49 | 2 |
| 17 | T20 | 1376 | 3027.2 | 2125.2 | 70.20 | 2 |
| 18 | T28 | 1376 | 3027.2 | 2120.8 | 70.06 | 2 |
| 19 | T21 | 1376 | 4403.2 | 3030.4 | 68.82 | 2 |
| 20 | T17 | 1376 | 3027.2 | 2037.2 | 67.30 | 2 |
| 21 | O40B | 1376 | 1513.6 | 1009.8 | 66.72 | 2 |
| 22 | T26 | 1376 | 1788.8 | 1186.9 | 66.35 | 2 |
| 23 | T16 | 1376 | 1788.8 | 1150.5 | 64.32 | 2 |
| 24 | O44A | 1376 | 2064 | 1326 | 64.24 | 2 |
| 25 | T13 | 1376 | 1788.8 | 1147.9 | 64.17 | 2 |
| 26 | T8 | 1376 | 3027.2 | 1916.2 | 63.30 | 2 |
| 27 | T1 | 1376 | 1788.8 | 1121.9 | 62.72 | 2 |
| 28 | O42B | 1376 | 1513.6 | 930.6 | 61.48 | 2 |
| 29 | T10 | 1376 | 4403.2 | 2598.4 | 59.01 | 2 |
| 30 | T15 | 1376 | 4403.2 | 2537.6 | 57.63 | 2 |
| 31 | T3 | 1376 | 1788.8 | 1014 | 56.69 | 2 |
| 32 | T4 | 1376 | 3027.2 | 1639 | 54.14 | 2 |
| 33 | T33 | 1376 | 3027.2 | 1597.2 | 52.76 | 2 |
| 34 | O42A | 1376 | 1513.6 | 731.5 | 48.33 | 2 |
| 35 | T14 | 1376 | 3027.2 | 1434.4 | 47.38 | 2 |
| 36 | O37B | 1376 | 2339.2 | 1011.5 | 43.24 | 2 |
| 37 | T2 | 1376 | 3027.2 | 1207.8 | 39.90 | 2 |
| 38 | T22 | 1376 | 1788.8 | 657.8 | 36.77 | 2 |
| 39 | O41B | 1376 | 1513.6 | 519.2 | 34.30 | 2 |

| | | | | | | |
|-----------|-------------|-------------|---------------|--------------|--------------|----------|
| 40 | T9 | 1376 | 3027.2 | 1031.8 | 34.08 | 2 |
| 41 | O36A | 1376 | 2064 | 696 | 33.72 | 2 |
| 42 | O45A | 1376 | 1513.6 | 503.8 | 33.28 | 2 |
| 43 | O37A | 1376 | 2064 | 670.5 | 32.49 | 2 |
| 44 | T27 | 1376 | 3027.2 | 957 | 31.61 | 2 |
| 45 | O36B | 1376 | 2339.2 | 671.5 | 28.71 | 2 |
| 46 | O39A | 1376 | 2064 | 565.5 | 27.40 | 2 |
| 47 | T31 | 1376 | 3027.2 | 807.4 | 26.67 | 2 |
| 48 | T25 | 1376 | 3027.2 | 752.4 | 24.85 | 3 |
| 49 | O45B | 1376 | 1513.6 | 364.1 | 24.06 | 3 |
| 50 | O38B | 1376 | 2339.2 | 520.2 | 22.24 | 3 |
| 51 | O39B | 1376 | 2339.2 | 464.1 | 19.84 | 3 |
| 52 | O38A | 1376 | 2064 | 400.5 | 19.40 | 3 |
| 53 | O44B | 1376 | 2339.2 | 448.8 | 19.19 | 3 |

Test natijalarining statistik tahliliga ko‘ra (3-jadval), **53 ta** test topshiriqlaridan **13 tasi** (24,53 foiz) 1- qiyinlik darajasidagi test topshiriqlaridan, **34 tasi** (64,15 foiz) 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlaridan va **6 tasi** (11,32 foiz) 3-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlaridan iborat ekanligi aniqlandi.

3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ID raqamlari – **O37A** va **O37B**, **O38A** va **O38B** hamda **O42A** va **O42B** bo‘lgan ochiq turdag'i test topshiriqlariga berilgan javoblar (agar ular bir-biridan kelib chiqadigan test topshiriqlari bo‘lsa) mutanosib emas. Shuning uchun ushbu test topshiriqlarini ko‘rib chiqish va sabablarini aniqlash tavsiya qilinadi.

Shuningdek, ID raqamlari – **T5**, **T18** va **T12** bo‘lgan yopiq turdag'i hamda O40A bo‘lgan ochiq turdag'i test topshiriqlarining qiyinlik darajasi bo‘yicha juda oson ekanligini e’tiborga olgan holda ushbu test topshiriqlarini qiyinlik darajasi bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish va sabablarini aniqlash tavsiya qilinadi.

Bundan tashqari variantda 3-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari me‘yordan biroz kamligini hisobga olgan holda ularning sonini 16-25 foizgacha oshirish tavsiya qilinadi.

IV. BISERIAL KORRELYATSIYA KOEFFITSIYENTLARI

Har bir topshirig‘iga berilgan javoblarning umumiyligi test bali bilan korrelyatsiyasi (1, 2, 3, ... 53- test topshiriqlari va umumiyligi ball orasidagi korrelyatsiya) biserial korrelyatsiya koeffitsiyentiga teng bo‘ladi.

Umuman olganda, biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 2-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun 0,5 va undan katta bo‘lsa, 1- va 3- qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari uchun esa 0,25 va undan katta bo‘lsa valid hisoblanadi. Biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati manfiy bo‘lgan test topshiriqlari esa variantdan chiqariladi. Aks holda bilim darajalari past bo‘lgan talabgorlar g‘olib bo‘lib, bilim darajalari yuqori bo‘lgan talabgorlar test topshiriqlarini yechishda noto‘g‘ri javobni tanlaydilar yoki ularni o‘tkazib yuboradilar.

4-jadvalda test natijalari tahlili natijasida olingan test topshiriqlarining biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari keltirildi.

4-jadval

| No | ID | BKK |
|----------|-----------|--------------|
| 1 | T5 | 0.244 |
| 2 | T18 | 0.312 |
| 3 | O40A | 0.357 |

| | | |
|-----------|------------|--------------|
| 4 | T12 | 0.416 |
| 5 | T23 | 0.351 |
| 6 | T30 | 0.479 |
| 7 | O41A | 0.373 |
| 8 | T32 | 0.481 |
| 9 | T11 | 0.392 |
| 10 | T7 | 0.421 |
| 11 | T34 | 0.325 |
| 12 | T29 | 0.517 |
| 13 | T35 | 0.436 |
| 14 | T24 | 0.547 |
| 15 | T6 | 0.458 |
| 16 | T19 | 0.429 |
| 17 | T20 | 0.381 |
| 18 | T28 | 0.456 |
| 19 | T21 | 0.385 |
| 20 | T17 | 0.442 |
| 21 | O40B | 0.526 |
| 22 | T26 | 0.366 |
| 23 | T16 | 0.270 |
| 24 | O44A | 0.376 |
| 25 | T13 | 0.513 |
| 26 | T8 | 0.463 |
| 27 | T1 | 0.204 |
| 28 | O42B | 0.457 |
| 29 | T10 | 0.527 |
| 30 | T15 | 0.401 |
| 31 | T3 | 0.379 |
| 32 | T4 | 0.502 |
| 33 | T33 | 0.342 |
| 34 | O42A | 0.525 |
| 35 | T14 | 0.413 |
| 36 | O37B | 0.434 |
| 37 | T2 | 0.218 |
| 38 | T22 | 0.329 |
| 39 | O41B | 0.511 |
| 40 | T9 | 0.252 |
| 41 | O36A | 0.346 |
| 42 | O45A | 0.537 |
| 43 | O37A | 0.490 |
| 44 | T27 | 0.249 |
| 45 | O36B | 0.424 |
| 46 | O39A | 0.476 |
| 47 | T31 | 0.324 |
| 48 | T25 | 0.163 |
| 49 | O45B | 0.398 |
| 50 | O38B | 0.339 |
| 51 | O39B | 0.465 |
| 52 | O38A | 0.341 |
| 53 | O44B | 0.404 |

Biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari 0,25 dan kichik bo‘lgan (4-jadvalda ajratib ko‘rsatilgan ID raqamlari – **T5, T1, T2, T27** va **T25**) test topshiriqlarini o‘rganib chiqib kerakli o‘zgarishlar qilish, lozim bo‘lsa variantdan chiqarib tashlash tavsiya etiladi. Biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari 0,5 dan kichik bo‘lgan test topshiriqlari esa, o‘rganib chiqilib qiyinlik darajalarini hisobga olgan holda kerakli o‘zgarishlar qilish tavsiya qilinadi.

V. XULOSA VA TAVSIYALAR

Geografiya fanidan Milliy sertifikat uchun o‘tkazilgan test sinovida foydalanilgan test topshiriqlarining ishonchlilik koeffitsiyenti (Kronbax alfa koeffitsiyenti) **0,89** ga teng ekanligi, ishonchlilik koeffitsiyentiga qo‘yilgan mezonlarga asosan (2-jadval), test topshiriqlarining o‘zaro ichki muvofiqligi “**yaxshi**” darajada ekanligi aniqlandi.

Test topshiriqlarining ichki muvofiqligi har bitta test topshirig‘iga berilgan to‘g‘ri javoblarning umumiyligi bilan korrelyatsiyasiga, talabgorlar olgan umumiyligi ballarning standart og‘ishiga, har bitta test topshirig‘iga berilgan javoblarning standart og‘ishlari yig‘indisiga hamda test topshiriqlari va test topshiruvchilar soniga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari test topshiriqlarining ichki muvofiqligi nafaqat test topshiriqlarining sifatiga, balki talabgorlarning tayyorgarlik darajasining past yoki yuqoriligidagi ham bog‘liqdir.

ID raqamlari – **O37A** va **O37B**, **O38A** va **O38B** hamda **O42A** va **O42B** bo‘lgan ochiq turdagagi test topshiriqlariga berilgan javoblar (agar ular bir-biridan kelib chiqadigan test topshiriqlari bo‘lsa) mutanosib emas. Shuning uchun ushbu test topshiriqlarini ko‘rib chiqish va sabablarini aniqlash tavsiya qilinadi.

Shuningdek, ID raqamlari – **T5**, **T18** va **T12** bo‘lgan yopiq turdagagi hamda O40A bo‘lgan ochiq turdagagi test topshiriqlarining qiyinlik darjasini bo‘yicha juda oson ekanligini e’tiborga olgan holda ushbu test topshiriqlarini qiyinlik darjasini bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish va sabablarini aniqlash tavsiya qilinadi.

Bundan tashqari variantda 3-qiyinlik darajasidagi test topshiriqlari me‘yordan biroz kamligini hisobga olgan holda ularning sonini 16-25 foizgacha oshirish tavsiya qilinadi.

Biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari 0,25 dan kichik bo‘lgan (4-jadvalda ajratib ko‘rsatilgan ID raqamlari – **T5, T1, T2, T27** va **T25**) test topshiriqlarini o‘rganib chiqib kerakli o‘zgarishlar qilish, lozim bo‘lsa variantdan chiqarib tashlash tavsiya etiladi. Biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymatlari 0,5 dan kichik bo‘lgan test topshiriqlari esa, o‘rganib chiqilib qiyinlik darajalarini hisobga olgan holda kerakli o‘zgarishlar qilish tavsiya qilinadi.

**Ilmiy-o‘quv amaliy markazining
Pedagogik o‘lchovlarni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot bo‘limi boshlig‘i:**

M.Dj. Ermamatov

Bosh mutaxassis:

A.R. Sattiyev

23.06.2023